

Kunlarning sovushi “Yorqin payshanba” aksiyasiga to‘sqinlik qilmaydi!

2024 4 Dekabr

5-dekabr kuni “Yorqin payshanba” aksiyasi doirasida Toshkentdan Dehli, Mumbai, Samarqand, Termiz, Urumchi va ortga, shuningdek Toshkent, Buxoro, Samarqand, Urganch va Farg'onadan Istanbulga va ortga eʼlon qilingan jadval tugagunga qadar barcha aviaqatnovlar ta'riflari uchun 20% gacha chegirma eʼlon qilamiz.

Aksiya faqat bir kun davomida – 00:00 dan 23:59 gacha amal qiladi. Aviachiptalarni www.uzairways.com saytida, ilovada, Uzbekistan Airways Sales filialida yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qiling. Yoʻlovchi va yuk tashish tariflariga qoʻshimcha ravishda turli soliqlar, yigʻimlar va toʻlovlar ham oʻrnatiladi. Ularga 20% gacha chegirma amal qilmaydi.

Aksiyasining batafsil shartlari:

Aksiya muddati 2024-yil 05-dekabr soat 00:00 dan 23:59 gacha;

Taqdim etiladigan chegirma miqdori:

kattalar uchun tarifdan – 20% gacha;

2 yoshgacha va 2 yoshdan 12 yoshgacha boʻlgan salonda joy egallovchi bolalar uchun – bolalar tarifiga mos ravishda – 20% gacha;
chegirma salonda joy egallamaydigan va 2 yoshgacha boʻlgan bolalar uchun amal qilmaydi;

Aviachipta qaytarilganda/qayta bronlashtirilganda/qayta rasmiylashtirilganda tarifga taqdim etilgan chegirma aviachiptani qaytarish/qayta bronlashtirish/NO-SHOW uchun undiriladigan yigʻimlarga nisbatan qoʻllanilmaydi. Bolalar uchun belgilangan tartibda (25% chegirma bilan) undiriladi;

Ilgari sotib olingan aviachiptalar 05.12.2024da qayta rasmiylashtirilsa yoki qayta bron qilinsa, tarifga chegirma qoʻllanilmaydi;

Chegirma bilan qisman foydalanilgan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, qayta hisob-kitob aviachipta chiqarilgan sanada (yaʼni chegirma qoʻllanilgan holda) amalga oshiriladi;

Aviatashuv muddati cheklanmagan (aviatashuvning amal qilish muddati qoʻllanilgan tarif qoidalari bilan belgilanadi, aviachiptalarni eʼlon qilingan berilgan jadval asosida rasmiylashtirishga ruxsat beriladi);

Chegirmalarni birlashtirish taqiqlanadi;

Chegirma eʼlon qilingan barcha individual ekonom va biznes-klass tariflari uchun faqat Toshkentdan Dehli, Mumbai, Samarqand, Termiz, Urumchi va ortga, shuningdek Toshkent, Buxoro, Samarqand, Urganch va Farg'onadan Istanbulga va ortga qaytuvchi toʻgʻridan-toʻgʻri yoʻnalishlar uchun taqdim etiladi. CodeShare aviaqatnovlarida va Tijorat shartnomalari (SPA) ostida eʼlon qilingan tariflar uchun amal qilmaydi.

Uzbekistan Airways O'zbekistondagi eng yirik aviakompaniya hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyati maqomiga ega. Uning aviaparkida Boeing 767/787, Airbus A320ceo/320neo/321neo/A330, L-410, ATR-72 kabi havo kemalar mavjud.

Yo'nalishlar tarmog'i va havo kemalar parkini doimiy ravishda kengaytirmoqda hamda ko'rsatilayotgan xizmatlar darajasini yaxshilaydi. Parvoz xavfsizligi esa aviakompaniya uchun doimo ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

Uzbekistan Airways muntazam, charter va yuk tashuvchi aviatnovlarini hamda Uzbekistan Airways Express loukoster tizimi bo'yicha ham parvozlarni amalga oshiradi.

Uzbekistan Airways tarkibiga "Uzbekistan Helicopters" MChJ, "Uzbekistan Airways Technics" MChJ, "Catering" MChJ, "O'quv-mashq markazi" MChJ kabi kompaniyalar ham kiradi.